XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-mart VII-5-37-8-116-K/25 Sariosiyo tumani

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risida

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi tuman hokimligi tomonidan taqdim etilgan takliflarni ko‘rib chiqib va muhokama etib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi tuman hokimligi tomonidan taqdim etilgan takliflar ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu qaror loyihasi regulation.gov.uz saytiga 15 kun jamoatchilik muhokasiga qo‘yilganligi va qaror loyasi yuzasidan taklif tushmaganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman hokimligiga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan tasdiqlangan koeffitsientlarni ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlash topshirilsin.

6. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan koeffitsientlar asosida soliqlarni hisoblash va budjetga tushirilishini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Qultoyevga topshirilsin.

7. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Asadov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



DONAYEV
ABDUQODIR
HAYDAROVICH

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2025-yil 13-martdagi
VII-5-37-8-116-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/R	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	**Yer osti**	**Yer usti**	**Yer osti**	**Yer usti**	**Yer osti**	**Yer usti**	**Yer osti**
1	Sariosiyo tumani	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3

Izoh: *qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko ‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi.*

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2025-yil 13-martdagi
VII-5-37-8-116-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/R	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh- chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar
1	Sariosiyo tumani	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2

Izoh: *Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsient belgilashga haqli.*